



YURIDIK XIZMAT FAOLIYATIDA MEHNAT MUNOSABATLARINI HUQUQIY JIHATDAN TA'MINLASH MASALALARI

Umirzaqov Fayzullo G'aybilla o'g'li

Namangan davlat universiteti

Davlat boshqaruvi huquqi mutaxassisligi

1-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona va tashkilotlar faoliyatida yuridik xizmatning tutgan o'rni, uning asosiy vazifalari hamda huquqiy munosabatlarni tartibga solishdagi ahamiyati yoritilgan. Unda yuridik xizmat xodimlarining huquq va majburiyatlari, huquqiy ekspertiza jarayonidagi mas'uliyati, mehnat shartnomalarini tuzish va ularning qonunchilik talablariga muvofiqligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, zamonaviy boshqaruv tizimlari va raqamlashtirish jarayonlari sharoitida yuridik xizmat faoliyatiga qo'yilayotgan yangi talablar, inson manfaatlarini ustuvor yo'nalish sifatida belgilashning ahamiyati ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: yuridik xizmat, korxona, huquqiy munosabatlar, mehnat shartnomasi, mehnat intizomi, qonuniylik, huquqiy ekspertiza, mulkiy manfaatlar, shartnomaviy munosabatlar, huquqiy xavfsizlik.

Annotation: This article explores the role of legal services in the activities of enterprises and organizations under market economy conditions, their main functions, and their importance in regulating legal relations. It focuses on the rights and obligations of legal service employees, their responsibilities in the process of legal expertise, as well as issues related to drafting employment contracts and ensuring their compliance with legislative requirements. Furthermore, the article highlights the new requirements imposed on legal service activities in the context of modern management systems and digitalization processes, as well as the importance of prioritizing human interests as a fundamental principle.

Keywords: legal service, enterprise, legal relations, employment contract, labor discipline, legality, legal expertise, property interests, contractual relations, legal security.





Аннотация: В данной статье рассматривается роль юридической службы в деятельности предприятий и организаций в условиях рыночной экономики, её основные функции, а также значение в регулировании правовых отношений. Особое внимание уделено правам и обязанностям работников юридической службы, их ответственности в процессе правовой экспертизы, а также вопросам подготовки трудовых договоров и обеспечения их соответствия требованиям законодательства. Кроме того, в статье освещаются новые требования, предъявляемые к деятельности юридической службы в условиях современных систем управления и процессов цифровизации, а также значение приоритета интересов человека как основополагающего принципа.

Ключевые слова: юридическая служба, предприятие, правовые отношения, трудовой договор, трудовая дисциплина, законность, правовая экспертиза, имущественные интересы, договорные отношения, правовая безопасность.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona va tashkilotlar faoliyatining samaradorligi nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlar, balki huquqiy munosabatlarning to'g'ri va samarali tashkil etilganligi bilan ham belgilanadi. Korxona faoliyatida qonuniylikni ta'minlash, mehnat munosabatlarini tartibga solish, mulkiy manfaatlarni himoya qilish, shartnomalar ijrosini nazorat qilish hamda yuzaga keladigan nizolarni o'z vaqtida hal etishda yuridik xizmat muhim o'rin tutadi. Yuridik xizmat korxonaning huquqiy xavfsizligini ta'minlovchi, uning barqaror faoliyati va qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi asosiy tarkibiy tuzilmalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot va zamonaviy boshqaruv tizimlarini joriy etish jarayonlari jadallashib bormoqda. Bu esa yuridik xizmat faoliyatiga ham yangi talab va vazifalarni yuklamoqda. Shu o'rinda Prezidentimizning: "Ayni paytda raqamlashtirishni keng qo'llashga intilar ekanmiz, har qanday o'zgarishlar negizida doimo inson turishini yodda tutish muhimdir"¹, degan fikrlari alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur g'oya mehnat munosabatlarini tartibga solish, xodimlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda korxonalarda adolat va

¹ Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning **Peterburg xalqaro iqtisodiy forumining** yalpi yig'ilishida so'zlagan nutqlaridan. 05.06.2026





qonuniylik muhitini qaror toptirishda yuridik xizmatning o‘rni va mas’uliyatini yanada oshiradi.

Yuridik xizmat o‘z faoliyatini amaldagi qonunchilik hujjatlari hamda tegishli normativ-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiradi. Unga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni o‘z vaqtida, sifatli hamda samarali bajarish yuridik xizmat faoliyatining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, yuridik xizmat davlat organi yoki tashkilot faoliyatida qonuniylikni ta’minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda huquqiy xavflarni bartaraf etishda muhim o‘rin tutadi.

Yuridik xizmat zimmasiga yuklatilgan muhim majburiyatlardan biri davlat organi va tashkilotda, shuningdek uning tizimiga kiruvchi tarkibiy tuzilmalarda qonun hujjatlari talablari buzilgan holatlar aniqlangan taqdirda bu haqda zudlik bilan yuqori turuvchi organi, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligini hamda vakolatli huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor qilishdan iboratdir.² Mazkur vazifa tashkilot faoliyatida qonun ustuvorligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning salbiy oqibatlarini bartaraf etish va ularning takrorlanishining oldini olishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, yuridik xizmat xodimlari o‘z kasbiy bilim va ko‘nikmalarini muntazam ravishda takomillashtirib borishi, belgilangan tartib va muddatlarda malaka oshirishi hamda attestatsiyadan o‘tishi shart. Chunki huquqiy munosabatlarning doimiy ravishda rivojlanib borishi va qonunchilikning takomillashuvi yuridik xizmat xodimlaridan yuqori kasbiy salohiyat, chuqur huquqiy bilim va amaliy tajribani talab etadi.

Qonunchilik hujjatlariga muvofiq yuridik xizmat xodimlari boshqa majburiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin. Ushbu majburiyatlar tashkilot faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari hamda yuridik xizmat oldiga qo‘yilgan vazifalardan kelib chiqib belgilanadi. Yuridik xizmat tomonidan viza qo‘yilgan hujjatlar va berilgan huquqiy xulosalarning qonunchilik talablariga muvofiqligi uchun bevosita javobgarlik yuridik xizmat zimmasiga yuklatiladi.³

Shu sababli hujjatlarni huquqiy ekspertizadan o‘tkazishda qonuniylik, xolislik va professionallik tamoyillariga qat’iy rioya etilishi talab etiladi. Agar yuridik xizmat

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-yanvardagi PQ-2733-son qaroriga 1-ilova bilan tasdiqlangan “Davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmati to‘g‘risida” nizomning 19-bandi

³ O’sha manba 20-band





xodimi o'ziga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bajarmasa yoki ularni lozim darajada amalga oshirmasa, qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda intizomiy, ma'muriy yoki boshqa turdagi yuridik javobgarlikka tortilishi mumkin. Bu esa yuridik xizmat faoliyatining mas'uliyatli va alohida ahamiyatga ega institut ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Yuridik xizmat korxonada mehnat munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solishda muhim o'rin tutadi. Xususan, u mehnat shartnomalarini tayyorlash, ularning amaldagi qonunchilik talablariga muvofiqligini tekshirish, shuningdek mehnat munosabatlari bilan bog'liq buyruq, farmoyish va boshqa ichki hujjatlarni huquqiy ekspertizadan o'tkazishda faol ishtirok etadi. Bu esa xodimlar va ish beruvchi o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning qonuniy asosda shakllanishini hamda mehnat huquqlarining samarali himoya qilinishini ta'minlaydi.

Mehnati munosabatlarining asosiy huquqiy manbalaridan biri mehnat shartnomasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga ko'ra, mehnat shartnomasi xodim va ish beruvchi o'rtasidagi taraflarning o'zaro huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvdir. Unga muvofiq, xodim ish beruvchining manfaatlarini ko'zlab, shartnomada nazarda tutilgan mehnat vazifasini uning rahbarligi va nazorati ostida shaxsan bajarish hamda ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya etish majburiyatini oladi. O'z navbatida, ish beruvchi xodimni belgilangan mehnat vazifasi bilan ta'minlash, unga ish haqini o'z vaqtida va to'liq hajmda to'lash, shuningdek mehnat to'g'risidagi qonunchilik, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar hamda mehnat shartnomasida nazarda tutilgan mehnat sharoitlarini yaratib berish majburiyatini zimmasiga oladi.⁴

Mazkur ta'rifdan ko'rinib turibdiki, mehnat shartnomasi nafaqat xodim va ish beruvchi o'rtasidagi mehnat munosabatlarining vujudga kelishiga asos bo'luvchi huquqiy hujjat, balki taraflarning huquq va majburiyatlarini aniq belgilab beruvchi muhim huquqiy kafolat ham hisoblanadi. Shu sababli mehnat shartnomalarining qonunchilik talablariga muvofiq rasmiylashtirilishi va ijrosining nazorat qilinishi yuridik xizmat faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi.

Mehnati intizomini mustahkamlash ham yuridik xizmatning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Korxona ichki mehnat tartibi qoidalarining ishlab chiqilishi,

⁴ Mehnat kodeksi 103-modda





xodimlarning huquq va majburiyatlarining aniq belgilanishi hamda intizomiy jazo choralarning qonuniy qo'llanilishi yuridik xizmat nazorati ostida amalga oshiriladi. Natijada korxonada qonuniylik va mehnat tartibi mustahkamlanadi. Yuridik xizmatning mehnat intizomini mustahkamlashdagi vazifalaridan biri intizomiy jazo qo'llash tartibining qonuniyligini ta'minlashdir. Mehnat intizomi deganda xodimning o'ziga yuklatilgan mehnat vazifalarni lozim darajada bajarishi, korxonaning ichki hujjatlarida belgilangan tartib-qoidalarga amal qilishi tushuniladi.⁵ Intizomiy jazo xodimning qilmishi, aybi, sodir etilgan holatning og'irligi, avvalgi mehnat faoliyati va tushuntirish xatining mazmuni hisobga olingan holda qo'llanadi. Qonunchiligimizda intizomiy jazo turlari quyidagicha belgilangan:

- hayfsan;
- o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima;
- malaka darajasini pasaytirish;
- davlat fuqarolik xizmati lavozimini pasaytirish;
- egallab turgan davlat fuqarolik xizmati lavozimidan ozod qilish.⁶

Yuridik xizmat xodimlarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish ularning kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish, xizmat vazifalarini sidqidildan bajarishga undash hamda yuqori malakali kadrlarni davlat xizmatiga jalb etishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, yuridik xizmat xodimi davlat fuqarolik xizmatchisi sifatida turli rag'batlantirish choralaridan foydalanish huquqiga ega.

Xususan, davlat fuqarolik xizmatchilariga lavozim maoshiga qo'shimcha ustamalar belgilanishi, pul mukofotlari berilishi, navbatdan tashqari malaka darajasi tayinlanishi, minnatdorchilik e'lon qilinishi mumkin. Shuningdek, ularning xizmatdagi

⁵ Otabek Narziyev. Yuridik xizmat: nazariya va amaliyot uyg'unligi. Toshkent : TDYU nashriyoti. 2023. 98-bet

⁶ O'zbekiston Respublikasining 08.08.2022 yildagi O'RQ-788-sonli "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risidagi" qonuni 46-modda





yutuqlari va samarali mehnati qimmatbaho sovgʻalar, esdalik sovgʻalari, koʻkrak nishonlari yoki faxriy yorliqlar bilan taqdirlash orqali ham eʼtirof etiladi.⁷

Bundan tashqari, oʻz xizmat vazifalarini namunali darajada bajargan, davlat va jamiyat oldidagi alohida xizmatlari bilan ajralib turgan yuridik xizmat xodimlari qonunchilikda belgilangan tartibda davlat mukofotlariga ham tavsiya etilishi mumkin. Mazkur ragʻbatlantirish mexanizmlari yuridik xizmat xodimlarining mehnat motivatsiyasini oshirish, ularning kasbiy salohiyatini rivojlantirish hamda davlat organlari va tashkilotlarida huquqiy taʼminot sifatini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Korxona mulki va moddiy boyliklarini saqlash, ulardan oqilona foydalanishni tashkil etish yuridik xizmat faoliyatining ustuvor yoʻnalishlaridan biridir. Korxonaning mulkiy manfaatlarini himoya qilish uning iqtisodiy barqarorligini taʼminlash bilan chambarchas bogʻliqdir. Mulknı saqlash keng maʼnoda moddiy boyliklarnı iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy vositalar yordamida himoya qilishni anglatadi. Tor maʼnoda esa mulknı huquqiy vositalar orqali muhofaza qilish tushuniladi. Yuridik xizmat aynan shu yoʻnalishda korxonaning boshqa tarkibiy boʻlinmalari bilan hamkorlikda faoliyat olib boradi.

Korxonalarda mehnat munosabatlarining raqamlashtirilishi ham yuridik xizmat oldiga yangi vazifalarnı qoʻyadi. Elektron hujjat aylanishi, elektron buyruqlar, raqamli imzo, masofaviy ish, elektron jadval va maʼlumotlar bazalaridan foydalanish jarayonlarida huquqiy ishonchlilik masalasi paydo boʻladi. Yuridik xizmat elektron hujjatlarning yuridik kuchi, ularni tasdiqlash, saqlash, xodimga yetkazish va dalil sifatida foydalanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda ichki tartiblarnı ishlab chiqishi lozim. Bu mehnat munosabatlarining zamonaviy shakllarida ham qonuniylıknı saqlashga xizmat qiladi.

Yuridik xizmat korxona rahbariyatiga mehnat munosabatlari boʻyicha huquqiy xavflar xaritasini shakllantirishda ham yordam berishi mumkin. Bunda qaysi lavozimlar moddiy javobgarlik bilan bogʻliq, qaysi boʻlinmalarda intizom buzilishi koʻp uchraydi, qaysi hujjatlar eskirgan, qaysi shartnoma shakllari yangilanishi kerak,

⁷ Oʻzbekiston Respublikasining 08.08.2022 yildagi OʻRQ-788-sonli “Davlat fuqarolik xizmati toʻgʻrisidagi” qonuni 44-modda





qaysi jarayonlar sud nizosiga sabab bo'lishi mumkinligi aniqlanadi. Ushbu tahlil asosida ichki hujjatlarni takomillashtirish, mas'ullarni belgilash, xodimlarni o'qitish va nazorat choralari kuchaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Korxonada moddiy zarar aniqlangan hollarda tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish, aybdor shaxslarni aniqlash va zararni undirish choralari ko'rish ham yuridik xizmat zimmasidagi vazifalardan hisoblanadi. Shu orqali korxonaning iqtisodiy manfaatlari himoya qilinadi. Korxona mulkini saqlashda moddiy javobgar shaxslar instituti muhim ahamiyatga ega. Moddiy javobgar shaxslar bilan to'liq moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnomalar tuzilishi korxona mulkini himoya qilishning samarali huquqiy vositalaridan biridir.

Sudga murojaat qilish zarur bo'lgan hollarda yuridik xizmat da'vo materiallarini tayyorlaydi, davlat bojini hisoblaydi, tegishli sudni aniqlaydi va korxona manfaatlarini sudda himoya qiladi. Sud qarorlarining ijrosini nazorat qilish ham uning muhim vazifalaridan biridir. Yuridik xizmat korxona faoliyatining barcha muhim yo'nalishlarida faol ishtirok etadi. Mehnat munosabatlarini huquqiy tartibga solish, korxona mulkini saqlash, shartnomaviy ishlarni tashkil etish va talabnoma-da'vo ishlarini yuritish orqali u korxonaning huquqiy xavfsizligini ta'minlaydi.

Korxonalarda yuridik xizmat faoliyatini yanada takomillashtirish, uning vakolatlari va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga xizmat qiladi. Shuningdek, yuridik xizmat xodimlarining malakasini muntazam oshirib borish korxonalarda qonuniylikni ta'minlash va huquqbuzarliklarning oldini olishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. 28.10.2022
2. Otaxonov F. O'zbekiston Respublikasida yuridik xizmat. Toshkent : O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2007.
3. Jumag'ulov A. Yuridik xizmat. Toshkent : TDYU nashriyoti. 2025.
4. Narziyev O. Yuridik xizmat: nazariya va amaliyot uyg'unligi. Toshkent : TDYU nashriyoti. 2023. 248 bet
5. Otaxonov F.X. Tadbirkorlar huquqlari va yuridik xizmat: amaliy qo'llanma. T.: Adolat, 2010. 84 b.





6. Otaxonov F.X. Yuridik xizmatning nazariy-huquqly muammolari: monografiya / Mas'ul muharrir Toshqulov J.O'. T., 2019. 289 b.

7. Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, № PQ-2733. Qabul qilingan sana 19.01.2017. Kuchga kirish sanasi 20.01.2017.

8. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi — lex.uz materiallari.

